

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
VETERINARIYA VA CHORVACHILIKNI RIVOJLANTIRISH DAVLAT
QO‘MITASI**

**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar
universiteti**

Biotexnologiya fakulteti

« Biologiya, ekologiya va dorivor o‘simliklar» kafedrası

60710400 –Ekologiya va atrof muhit muhofazasi ta’lim yo‘nalishi uchun

**“Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish” fanidan “ tabiiy resurslardan
foydalanishning ilmiy – nazariy asoslari” mavzusidagi ma’ruza darsi
bo’yicha**

OCHIQ DARS

Ishlanmasi



Samarqand – 2025

Tuzuvchi:

Boymurodov X.T « Biologiya, ekologiya va dorivor o‘simliklar» kafedrası
b.f.d. professor

Taqrizchilar:

N.Xalilov Agrotexnologiya fakulteti,
O‘simlikshunoslik va yem-xashak yetishtirish
kafedrası mudiri professor.

Z.I.Izzatullayev – Samarqand davlat universiteti
Ekologiya va hayot faoliyati xavfsizligi kafedrası professori.

Vaqt: 2 soat	Talabalar soni:17 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Ma'ruza mashg'ulot
O'quv mashg'ulotining rejasi	1.Tabiiy resurslar haqida tushuncha. 2.Tabiat va jamiyat munosabatlari 3.Tabiiy resurslarni muhofaza qilish 4.Tabiatni muhofaza qilish aspektlari
<i>Darsning maqsadi:</i> . Ko'pyillik dorivor o'simlik turlarining tarqalish areali, tabobatda ishlatilishi	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> -maruza darsi davomida tabiiy resurslar haqida tushunchani shakllantirish jarayonlari to'g'risidagi tushunchalarni talabalar ongiga mustaxkamlash; - Tabiiy resurslarning foydali xususiyatlari, kimyoviy tarkibi, ishlatilishi haqida tushunchalar berish. - Tayyorlash usullari. Tabiiy resurslarni muhofaza qilish.Tabiiy resurslardan kimyoviy jarayonlar kerakli materiallar tayyorlash va boshqalar to'g'risida ma'lumotlar berish	<i>O'quv faoliyati natijalari:</i> Talabalar: - Tabiiy resurslarning uchrashi va undan foydalanish to'g'risidagi tushunchalarni talabalar ongiga mustaxkamlash; - Tabiiy resurslarning kimyoviy tarkibi, xomashyosini tayyorlash hamda muhofaza qilish va uning xususiyatlari haqida tushunchalar berish.
<i>Ta'lim usullari</i>	Darsni, tushunchalar tahlili, kichik guruhlarda ishlash, aqliy xujum, B/B/B,«FSMU» usuli.
<i>Ta'limni shakllantirish shakli</i>	Jamoaviy guruhli
<i>Ta'lim vositalari</i>	Ma'ruza mashg'uloti mavzusi bo'yicha dars ishlanmasi, videoprojektor, tarqatma materiallar: jixozlari, payvand pichog'i, payvadni bog'lovchi mato yoki plionkalar, rasmalar, mavzuga oid plakatlar rasmlar.
<i>Ta'lim berish usullari</i>	Maxsus texnik vositalar bilan jihozlangan auditoriya
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki so'rov: tezkor – so'rov, test.

Ma'ruza mashg'ulotning texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni
--------------------------	------------------

	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchi
1 – bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (10 daq.)	1.1. Salomlashish, davomatni aniqlash, talabalar darsga tayyorgarligini tekshirish. 1.2. Mavzuni mohiyati, uning maqsadi, o'quv mashg'ulotidan kutilayotgan natijalar ma'lum qilinadi.	Eshitadi, yozib oladi.
2 – bosqich. Asosiy (60 daq.)	2.1. Talabalar e'tiborini jalb etish va bilim darajalarini aniqlash uchun tezkor savol-javob o'tkazadi. (Aqliy hujum metodi 1-ilova) 2.2. O'qituvchi vizual materiallardan foydalangan holda mavzuni to'liq bayonini tushuntirib beradi. 2.3. Talabalarga mavzuning asosiy tushunchalariga e'tibor qilishni va yozib olishlarini ta'kidlaydi. 2.5. O'qituvchi dars oxirida qisqa savol javob qilib talabalarga yo'riqnoma berib boradi.	2.1. Eshitadi. O'ylaydi, javob beradi. 2.2. Sxema va jadvallar mazmunini muhokama qiladi. Savollar berib, asosiy joylarini yozib oladi. 2.3. Eslab qoladi, yozadi.
3 –bosqich. Yakuniy (10 daq.)	3.1. Mavzuni yakun qiladi, mavzuning dolzarbligiga bugungi kun talabiga mavzuni ahamiyati 3.2. Guruh ishini baholaydi; 3.3. Uyda bajarish uchun topshiriq beradi va baholash mezonlari bilan tanishtiradi.	O'z-o'zini, o'zaro baholashni o'tkazadilar. Savol beradilar. Topshiriqni yozadilar.

Mavzu: Tabiiy resurslardan foydalanishning ilmiy – nazariy asoslari

Reja

1.Tabiiy resurslar haqida tushuncha.

2.Tabiat va jamiyat munosabatlari

3.Tabiiy resurslarni muhofaza qilish

4.Tabiatni muhofaza qilish aspektlari

Tayanch iboralar: *Tabiiy resurslar, tiklanadigan resurslar, tiklanmaydigan resurslar*

Tabiiy resurslar xarakteristikasini bilish ulardan oqilona foydalanishda muhim ahamiyatga ega. Suv va havo sifat jihatdan tugaydigan resurs hisoblanadi. o'simlik va hayvonlarni faqatgina malum populyatsiyasi saqlanib qolgan holdagina qayta tiklash mumkin. yer osti qazilmalarining tiklanmasligini hisobga olib.Ulardan oqilona foydalanish katta ahamiyatga ega. Ulardan ko'plab foydalanish tufayli zahira kamayadi, tugaydi. Ularni qayta tiklab bo'lmaydi. Chunki yer osti boyliklari million yillarda, yangi geologik davrdagina, juda sekin, astalik bilan tiklanadi. Shuning uchun ularni qazib olishda, tashish va ishlatishda isrofgarchilikka atrof-muhitning ifloslanishiga yo'l qo'ymaslik kerak.

Dunyo okeani resurslari, atmosfera havosi, Antraktida tabiiy resurslari, kosmik fazo, ko'chib yuruvchi hayvonlar umumjahon resurslari hisoblanadi. Ulardan foydalanish. muhofaza qilish faqatgina xalqaro kelishuvlar yordamida. turli mamlakatlar ishtirokidagina muvaffaqiyatli amalga oshirilishi mumkin.

Tabiatni muhofaza qilish bir necha ming yillik tarixga ega. Lekin bu muammoga alohida etibor XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida vujudga keldi. 1864 yili AQShda J.Marshning «Inson va tabiat» kitobi bosilib chiqdi. Unda tabiatni muhofaza qilishning zarurligi haqida dastlabki fikrlar berildi. 1910 yili Shveysariyada Yevropadagi birinchi tabiatni muhofaza qilish jamiyati tuzildi. 1913 yili Bernda tabiatni muhofaza qilish bo'yicha birinchi Xalqaro kengash chaqirildi. 1948 yili tabiatni muhofaza qilish harakatlari XX asrning ikkinchi yarmida ayniqsa kuchaydi. o'zbekistonda tabiatni ilmiy asosda muhofaza qilish amalda 1920 yildan boshlangan. Jamiyat taraqqiyotining turli davrlarida inson bilan tabiiy muhit o'rtasidagi munosabat turlicha bo'lgan. Kishilik jamiyati taraqqiyotining dastlabki bosqichida inson bilan tabiatning o'zaro munosabati ibtidoiy ahvolda edi. Ibtidoiy odam o'zi uchun kerakli narsani tabiatdan olar ekan, buning oqibati to'g'risida o'ylab o'tirmas edi. Chunki, ibtidoiy odamlar soni jihatidan juda oz bo'lib tabiatga deyarli qaram bo'lgan. Kishilar bu davrda tabiatni emas, balkir tabiat kishilarni o'ziga bo'ysundirgan.

Ibtidoiy jamoa tuzumi davrida kishilar o'zi foydalanadigan tabiiy resurslarning holatiga malum darajada etibor berib, iste'mol qiladigan o'simliklarni va ov qiladigan hayvonlarni himoyaga ola boshlaganlar. Bu davrga kelib aholi soni ko'payib, ishlab chiqarish qurollari takomillashib. o'q-yoy, murakkabroq baliq ovlash asboblari yaratildi. Malum bir joylarda hayvonlarni ovlash, foydali o'simlik-urug'larini ko'plab terib olish man etila boshlandi. Foydali hayvonlarni ko'plab qirib tashlagan kishilar bu tuzumda o'lim jazosiga hukm qilingan. Noyob va qimmatli o'simlik hamda hayvonlar mavjud bo'lgan yerlar «muqaddas joy» deb e'lon qilingan va u yerlarda ov qilish, o'simliklarning mevasi va urug'ini terish man etilgan. Bu tadbir-choralar esa tabiatni muhofaza qilish tarixining boshlanishi bo'lgan.

Quldorlik jamiyati - xususiy mulkchilikga asoslangan jamiyat bo'lib, insonning tabiatga ko'rsatgan ta'siri ancha kuchayib borgan. Yirik quldorlar qullar kuchidan foydalanib katta territoriyalami haydab tabiiy o'simlik va hayvonlarni yo'q qilib, ekin dalalariga aylantirganlar. Bunga o'rta Osiyoda. Misrda, Xitoy va hindistonda yerlarni haydab, sug'orib dehqonchilik qilgan quldorchilik davlatlari misol bo'ladi. Quldorlik tuzumida yerlardan oqilona foydalanish to'g'risida o'ylanmaslik sababli, tuproqning tabiiy holati yomonlashib borgan.

Quldorlik jamiyati davrida ba'zi davlatlarda yog'och-taxtalarga talab juda ko'p bo'lgan. shu sababli. o'rmonlardan to'g'ri foydalanish va ularni qo'riqlash sohasida choralar ko'rila boshlangan. Bunga misol qilib, Vavilon davlatining bundan 4 ming yil oldin o'rmonlarni muhofaza qilish sohasida choralar ko'rilganligi, bu choralarni buzgan, kishilar qattiq jazolanganligini va hatto o'limga mahkum qilinganini aytish mumkin. Hattoki Misrda quldorlik jamiyatida «o'liklar daftari» tashkil etilgan. Bu daftarda tabiat muhofazasi sohasida juda qiziqarli savollar yozilgan. Unda o'lgan kishiga oxiralda quyidagi savol-javoblar berilishi yozilgan: «Men ularning yaylovlaridagi hayvonlarni o'ldirganim yo'q, hayvonlarni tangri yerlaridan haydab chiqarganim yo'q. Men baliq tutganim yo'q».

Bundan ko'rinib turibdiki. Qadimgi Misrda hayvonlarni o'ldirish, o'simliklardan noto'g'ri foydalanish, me'yoridan ortiqcha baliq tutish zararli va gunoh hisoblangan. Feodalizm davriga kelganda ishlab chiqarish rivojlanadi. Natijada juda katta territoriyalarda o'tloq va o'rmonlar yo'q qilinib, dehqonchilik uchun foydalaniladi. Ayniqsa rivojlangan G'arbiy Yevropadagi davlatlar dengizda suzish, yangi yerlarni zabt etish uchun ko'plab kemalar qurdi va madaniyatlarni eritish uchun ko'plab o'rmonlarni kesishgan. O'sha davrda bir kemani qurish uchun 400 ta tup dub daraxti kesilgan. Ispaniyaning «Yengilmas Armada» harbiy kemasini qurish uchun yarim million dub kesilgan. Natijada Ispaniyada hanuzgacha o'sha qirqilgan o'rmonlar tiklangani yo'q. Feodalizm davrida ko'plab o'rmonlarning qirqilishi oqibatida tuproq eroziyasi kuchaygan, daryo suv rejimi o'zgargan. qimmatli hayvonlar (shimol bug'isi, sayg'oq kabilar) kamayib keta boshlagan. Bu davrga kelib yer kurrasida tabiatda buzilish yuz bera boshlagan.

Tabiatda ro'y bergan salbiy o'zgarishlar bilan birga feodalizm davrida ham tabiatni muhofaza qilish choralari ko'rilgan. Bundan 1000 yil oldin Buxoro yaqinida atrofi baland devorlar bilan o'ralgan Shamsobod qo'riqxonasi tashkil etilgan bo'lib, uning ichida bug'u, kiyik, tulki, ayiq kabi yovvoyi hayvonlar yashaganligini tarixchi geograf Narshaxiy yozib qoldirgan.

Kapitalizm davrida jamiyat bilan tabiiy muhit orasidagi ta'sir juda ham kuchayib ketdi. Chunki ishlab chiqarish vositalari xususiy mulkchilikka asoslangan, o'zaro raqobatlar mavjud bo'lgan, xo'jaligi notekis rivojlanayotgan kapitalistik jamiyatda tabiiy resurslardan rejasiz foydalanildi. Yevropada va Shimoliy Amerikadagi katta territoriyalarda o'rmonlar kesilib, shimol va suv eroziyasi kuchayib, hosildor yerlar qishloq xo'jalik oborotiga yaroqsiz bo'lib qolgan.

XX asr boshlariga kelib yer kurrasidagi suv havzalari, atmosfera havosi, tuproqlar, sanoat, transport maishiy-kommunal, qishloq xo'jaligi chiqindilari va boshqa chiqindilar bilan ifloslanishi juda ham kuchayib ketdi. Bular o'z navbatida sayyoramiz biologik resurslarining holatiga va ayniqsa kishilar salomatligiga ziyon yetkazmoqda. Shu sababli jahon mamlakatlarida ham tabiiy muhitni toza saqlash, uni muhofaza qilish masalasi keng tus olmoqda.

Atrof-muhit regional ifloslanishdan global masshtabdagi ifloslanishga aylanib ketdi va geografik muhitda energetika balansining, ekologik sharoitning va moddalar almashinuvinin buzilishi uchun xavf tug'ildi. O'tgan asrning 50-yillaridan boshlab fan - texnikaning jadal rivojlanishi insoniyatning tabiatga ta'siri miqyosi va darajasining keskin ortishiga olib keldi.

Tabiiy resurslarning mislsiz o'zlashtirilishi, sanoat ishlab chiqarishining ortishi, transport vositalari sonining ko'payishi atrof - muhitning kuchli ifloslanishi muammosini keltirib chiqardi. Hozirgi kunda insoniyatning ehtiyojlari uchun yer ostidan 120 milliard t.dan ortiq foydali qazilmalar olinadi. Xalq xo'jaligining turli tarmoqlarida yiliga 4000 ktrr' dan ortiq suv ishlatiladi, yonish jarayonida 15 milliard t. kislorod sarf bo'ladi. YuNEP (1995 y) ma'lumotlariga ko'ra har sekundda atmosferaga 200 tonnadan ortiq CO₂ gaz chiqarilmoqda va 750 unumdor tuproq qatlami yo'qotilmoqda; har kuni 47 ming ga o'rmon buziladi. 346 ming ga yerlar cho'lga aylanadi; taxminan 100-300 tur o'simlik yo'qolyapti.

Tabiatga ta'sirning kuchayishi aholi sonining keskin oshishi bilan ham bevosita bog'langan. yer yuzida XX asr boshida 1 milliard 600 mln. kishi yashagashn bo'lsa, 1960 yilda ularning soni 3 milliard. Ga yetgan va XXI asr bo'sag'asida aholi soni 5,7 milliard kishidan ortgan. Ekologik inqirozning oldini olish- tabiiy resurslardan ununili foydalanish atrof-muhitni ifloslanishdan saqlash va demografik muammolarni hal qilish bilan bevosita bog'liqdir.

Fan - texnika evolyutsiyasi urbanizatsiya jarayonining jadallashuviga olib keldi, Urbanizatsiya-deganda shaharlar salmog'ining ortishi, shahar turmush tarzining keng yoyilishi tushuniladi. Hozirda yer yuzi aholisining yarmidan ortig'i shaharlarda yashamoqda.

Aholi, sanoat va transport zich joylashgan shaharlar biosfera ifloslanishining asosiy manbalari hisoblanadi. Yirik shaharlarni xuddi harakatdagi vulqonlarga o'xshatsa bo'ladi. Ular har kuni atrof - muhitga minglab tonna zararli birikmalar, iflos oqovalar, qattiq chiqindilar, issiqlik chiqarib turadi. Shaharlarda aholining kasallanish darajasi ham yuqori hisoblanadi. O'zbekistonda aholining 40% - shaharlarda yashaydi. Inson kundalik hayot ehtiyojlarini qondirish uchun tabiatni o'zgartiradi va undan foydalanadi. Tabiatni foydalanish muhim siyosiy va iqtisodiy muammo hisoblanadi. Tabiiy resurslardan

foydalanish, muhitning ifloslanishi - davlatlararo kelishmovchilik, hatto urush harakatlarini keltirib chiqarishi mumkin. Tabiatdan foydalanish talablarining buzilishi katta iqtisodiy zarar yetkazmoqda.

Bizda ham tabiiy muhit holati ancha ayanchli holga kelib qolgan yer osti boyliklarining isrofgarchilik bilan o'zlashtirilishi natijasida katta maydondagi unumdor yerlar yaroqsiz ahvolga tushgan. Suv, havo, tuproq ifloslangan. Cho'lga aylanish, sho'r bosish, jarayonlari tezlashgan. Orol dengizi, Orol bo'yi muammolari yana ko'plab ekologik jumboqlarni keltirib chiqarmoqda.

O'zbekistonda turli xastaliklarning ko'payishi va atrof-muhitning ifloslanishi o'rtasida bevosita bog'lanishlar kuzatilmoqda.

1-ilova

Aqliy hujum metodi

1. Tabiiy resurslarning foydali xususiyatlarini ta'riflang?
2. Tabiiy resurslarning kimyoviy tarkibi qanday ?
3. Muhitning ifloslanishi haqida misollar keltiring.
4. Tabiiy resurslarning sanoat sohasida qo'llanilishi
5. Tabiiy resurslarning foydali xususiyatlarini ta'riflang?
6. Tiklanmaydigan tabiiy resurslar kimyoviy tarkibi qanday ?
7. Tiklanadigan resurslar ishlatilishi misollar keltiring.
8. Tabiiy resurslarning kimyo zavod sohalarida qo'llanilishi

Talabalar bilan mavzu yuzasidan ishlash

2-ilova

Mavzu yuzasidan ishlash talabalarining darsda faolligini ta'minlaydi, har biri uchun munozarada qatnashish huquqini beradi, bir-biridan auditoriyada o'rganishga imkon tug'iladi, boshqalar fikrini qadrlashga o'rgatadi.

«FSMU» usuli. O'tilgan mavzuni umumlashtirish

F	• fikringizni bayon eting
S	• fikringizni bayoniga sabab ko'rsating
M	• ko'rsatgan sababingizni isbotlab misol keltiring
U	• fikringizni umumlashtiring

B/B/B/ jadvali

Bilaman	Bilishni hohlayman	Bilib oldim

Asosiy adabiyotlar

- 1.Yunosov X.B., Izzatullaev Z.I. Boymurodov X.T., Kenjibaeva G.S. “Biogeografiya” darslik. Samarqand. 2024-297 bet.
- 2.Yunosov X.B., Boymurodov X.T., Elmurodov A.A., Nurniyozov A.A., Abduova A.A., Egamqulov A.N., Turexonov F.F. “Ekologiya asoslari” O‘quv qo‘llanma. Samarqand, 2024-238 bet.
- 3.Ergashev A.E. “Umumiy ekologiya” Toshkent, “O‘qituvchi”. 2003-330-bet

Qo‘shimcha adabiyotlar

- 5.Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik. “Toshkent, “Tasvir” nashriyot uyi, 2021 – 52 bet.
- 6.Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik-milliy g‘oyamizning poydevoridir. Toshkent, “Tasvir” nashriyot uyi, 2021 – 36 bet.
- 7.Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent, “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022– 416 bet.
- 8.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-martdagi “Veterinariya va chorvachilik sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5696 son Farmoni.
- 9.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 31-martdagi “Veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-187-son qarori.
- 10.Коган А.Б. – Экологическая физиология человека. 1990. 264стр
- 11.Медитсинская география и экология человека. М. 1987. 125 стр.
- 12.Экология и безопасность жизнедеятельности. Под ред. Муравя Л.А. М., Юнити, 2000.447стр.

Axborot manbaalari

- 13.<http://www.Environment.ru>.
- 14.<http://www.Ecology.ru>.
- 15.<http://www.Envirion.com>.
- 16.<http://www.Ecolog.com>.